



## O'ZBEK FRAZELOGIYASINING O'RGANILISH TARIXI

**Ixtiyorbek Norov**

*Xalqaro innovatsiyalar universiteti  
magistranti*

**Matmuratova Muyassar**

*Qoraqalpoq davlat universiteti  
magistranti*

***Annotatsiya:** O'zbek frazeologiyasining asosiy muammolarini ilmiy jihatdan o'rganish ishlari boshlanganiga qirq yildan oshdi. 50-yillargacha frazeologiya hali o'zbek tilshunosligi taribida mustaqil soha sifatida shakllanib etmagan edi. Bu davrda frazeologiyaga doir dastlabki ma'lumotlar, turg'un birikmalarga oid ilk nazariy fikrlar grammatika va stilistikaga, ayrim o'zbek shoirlari, yozuvchilarining badiiy mahorati tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda ko'zga tashlanadi.*

***Kalit so'zlar:** frazeologiya, muammo, tarix, sintaksis, leksik.*

Ma'lumki, o'zbek frazeologiyasining nazariy masalalari dastlab E.D.Polivanov ishlarida o'rtaga qo'yilgan edi. U rus va ayrim sharq tillari frazeologiyasini o'rgandi va shu asosida frazeologiyani mustaqil lingvistik soha sifatida ajratish haqida fikr bildirdi. E.D.Polivanovning ta'kidlashicha, yangi shakllanadigan frazeologiya sohasi leksikologiyaga nisbatan xuddi sintaksis morfologiyaga nisbatan egallagan o'rinda bo'lishi lozim. «...Sintaksisga teng keluvchi yangi sohaning shakllanishiga ehtiyoj sezilmoqda, - deb yozgan edi E.D.Polivanov, - lekin sintaksis so'z birikmalarining umumiy tiplarini, xususiyatlarini o'rgansa, yangi shakllanadigan soha leksemalarning o'zaro munosabati asosida yuzaga keladigan birikmalarining konkret, individual (leksik) ma'no xususiyatlari bilan shugullanadi. Yangi shakllanadigan sohani E.D.Polivanov frazeologiya yoki idiomatika deb nomlagan edi.

O'zbek frazeologiyasining asosiy muammolarini ilmiy jihatdan o'rganish ishlari boshlanganiga qirq yildan oshdi. 50-yillargacha frazeologiya hali o'zbek tilshunosligi taribida mustaqil soha sifatida shakllanib etmagan edi. Bu davrda frazeologiyaga doir dastlabki ma'lumotlar, turg'un birikmalarga oid ilk nazariy fikrlar grammatika va stilistikaga, ayrim o'zbek shoirlari, yozuvchilarining badiiy mahorati tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda ko'zga tashlanadi. Bunday ishlar A.G'ulomov, U.Tursunov, A.K.Borovkov, F.Kamol, X.Zarif, V.Abdullayev, N.Mallayev singari mashhur tilshunos va adabiyotshunos olimlarning qalamiga mansub edi. Jumladan, A.Sa'diy, V.Abdullayev kabi adabiyotshunoslarning Alisher Navoiy asarlarida turg'un birikmalar, xalq iboralarining qo'llanilishiga oid fikrlari hozir ham o'z qimmatini saqlab kelmoqda.

Sh.Rahmatullayevning «O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari» nomli monografiyasida frazeologik sinonimlar tahlilidan keyin chiqargan quyidagi ilmiy



xulosasi har jihatdan asoslidir: «Har bir frazeologik sinonimga to'g'ri va to'liq xarakteristika berish uchun uni sinonimiya uyasi ichida olib, boshqa sinonimlari bilan qiyoslab o'rganish zarur. Bunda sinonimlar turli-tuman nuqtalardan tekshiriladi, ular orasidagi o'xshashlik ham, farqlar xam ta'kidlanadi. Sinonimlar orasida farqlar qancha oz bo'lsa, ularni nutqda bir-birining o'rnida ishlatishga imkoniyat ortadi va aksincha bo'lsa, bunday imkoniyat ozayadi. Qay darajada bo'lmasin, sinonimlarni o'zaro almashtirishga yo'l qo'yuvchi konktest mavjud bo'ladi. Bundan almashtirish bilan nimanidir yo'qotiladi, nimagadir ega bo'linadi. Xuddi ana shu «nimalardir» sinonim iboralarning xar biriga tilda yashash huquqini beradi».

Umuman olganda, Sh.Rahmatullayev to'g'ri ta'kidlaganidek, «variantlashish tufayli bir ibora boshqa bir iboraga aylanmaydi, bir iboraga xos obraz birligi, ma'no birligi saqlanadi. Variantlashish tufayli yuz beradigan o'zgarishlar iboralarga xos yaxlitlikni emirmaydi, parchalamaydi, balki iboraga xos yaxlitlik doirasida, shu yaxlitlik yo'l qo'ygan darajada voqea bo'ladi. Aks holda yo ibora yo'qqa chiqadi, yoki boshqa bir ibora barpo qilinadi».

Ko'rinadiki, professor Sh.Rahmatullayevning tadqiqotlari o'zbek frazeologiyasining shakllanishi va rivojida alohida qimmatga egadir.

Frazeologiya masalalariga oid 1-Butunittifoq ilmiy anjuman (1959)da professor U.Tursunov tomonidan o'zbek frazeologiyasining umumnazariy masalalari o'rtaga qo'yildi. Olim to'g'ri ta'kidlaganidek, frazeologiya sohasida umumnazariy masalalarni tadqiq etishga alohida e'tibor qilmasdan turib, o'zbek tili frazeologiyasini keng va chuqur o'rganish ishini yaxshi yo'lga qo'yish mumkin emas. Shu ilmiy anjumandan keyin yuzaga kelgan ilmiy maqolalarda o'zbek tili frazemalarining hosil bo'lishi, grammatik xususiyatlari, sintaktik vazifasi, ibora komponentlarining tartibi kabi masalalar o'rganilgan edi. Xuddi ana shunday ishlar o'zbek frazeologiyasining nazariy va amaliy jihatdan rivojlanishi uchun zamin bo'ldi.

Ayrim ishlarda tilning mustaqil birligi sifatida qaraladigan frazeologik birliklarni belgilovchi xususiyatlar-tayyor holda mavjudlik, strukturasi va komponent tarkibining turg'unligi, birikmaning o'z ma'nosini turli darajada yo'qota borishi, ustama ko'chma ma'noloning yaxlitligi kabilar o'zbek tili frazeologik birliklari materialida tahlil qilinadi, bunday tadqiqotlarda frazeologik birliklarni belgilovchi tayanch xususiyatlar topishga, iboralarni qo'shma so'zlar, erkin so'z birikmalaridan farqlashga harakat qilinadi, o'zbek tilidagi frazeologik birliklarning grammatik, semantik xususiyatlari o'rganiladi.

Ba'zi ishlarda frazeologik birliklarni erkin so'z birikmalari, qo'shma so'zlar singari tilning boshqa birliklaridan farqlashga intilish hollari seziladi. Lekin bu



ishlarda ham to'g'ri, haqqoniy fikr-mulohazalar bilan bir qatorda ayrim chalkash fikrlar ham aytilmoqda. Masalan, A.Abdullayev tilimizda mavjud bo'lgan *qo'lga olmoq, qo'l qo'ymoq, ovoz bermoq, bola ko'rmoq, tildan qolmoq, ko'zdan yo'qolmoq, ishdan chiqmoq tilga olmoq, ovozga qo'ymoq* kabi frazeologik birliklarlarni «boshqaruv» asosida yuzaga kelgan birikmalar deb hisoblaydi.

Ko'rinadiki, frazeologik birliklarni qo'shma so'zlar, erkin so'z birikmalari, tarkibli atamalar singari til birliklaridan farqlash o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Bizning ishimiz bu masalani hal etish yoki olmalar bilan munozaraga kirishib, masalaga oydinlik kiritishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymagan. Bizningcha, bu muammo qozoq tilshunosligida bo'lgani singari o'zbek tilshunosligida ham maxsus tekshirish ob'ekti bo'lmog'i zarur.

40-50 yillardan keyin esa rus tilshunosligida L.V.Arxangelskiy, A.M.Babkin, Yu.A.Gvozdarev, A.I.Molotkov, V.P.Jukov, V.M.Mokiyenko kabi, turkiyshunoslikda S.Kenesbayev, Sh.Rahmatullayev, G.A.Bayramov, G.Axunzyanov, Z.G.Uraksin, L.Bayramova, B.Yo'ldoshev, A.Mamatov kabi tilshunoslarning monografik tadqiqotlari yuzaga keldiki, ular u yoki bu darajada frazeologizmlarning tadqiqiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu tadqiqotlar frazeologizmlarning leksik-grammatik, leksik-semantik tabiati va stilistik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangandir.

Ayrim tilshunoslar (V.V.Vinogradov, A.V.Kunin, Yu.Yu.Avaliani, L.Royzenzon, V.Arxangelskiy, Yu.A.Gvozdarev, A.G.Nazaryan va boshqalar)ning tadqiqotlaridan frazeologiyada yangi ilmiy tekshirish sohasi shakllanayotganligi tobora ayon bo'lib bormoqda. Bu frazeologik shakllanish (frazoobrazovanie) masalalaridir.

Frazeologizmlarni tarixiy jihatdan, ya'ni frazeologik shakllanish manbalari tarixini o'rganish frazeologik ilm oldida turgan asosiy muammolardan biridir. Frazeologizmlar faqat til hodisasi bo'lmay, ular ijtimoiy-tarixiy davrning ham mahsuli hisoblanadi. Shu ma'noda frazeologizmlarning shakllanish xususiyatlari tadqiq etilganda, ularni tarixiylik jihatdan o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Diaxron tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, frazeologizmlarning paydo bo'lishi va shakllanishi uzoq o'tmishga borib taqaladi.

O'zbek tili frazeologiyasi o'ziga xos tarixiy, taraqqiyot bosqichlariga ega. Dastlabki bosqichda, tabiiyki, frazeologizmlar tarkibidagi leksemalar o'zbek tili leksikasining o'z mulkidan iborat bo'lgan. Davrlar o'tishi bilan tilimizga fors-tojik hamda arab tillaridan ko'plab leksemalar o'zlashdiki, ular frazeologizmlar tarkibida ham o'z aksini topdi.



Frazeologik tarkib ham leksik tarkib kabi rivojlanish va boyish, shuningdek, o'zgarish jarayonida tilning ichki qonunlariga amal qiladi. Frazeologizmlarning hosil bo'lishi leksika bilan bog'liq. Leksik fond qay darajada so'zlar bilan boyib borsa, frazeologik fond ham shunchalik boyib boraveradi. Chunki frazeologizmlarning shakllanishi uchun birinchi manba leksemalardir. Frazeologizmlar leksemalarning o'zaro shakllangan uyushmasi ekanligini unutmash kerak. Shunga ko'ra, frazeologizmlar birikmalardan iborat. Ammo frazeologizmlarning o'ziga xos shakllanish jarayonlari ularni oddiy so'z birikmalaridan farqlaydi. Frazeologizmlarning shakllanishi lisoniy va nolisoniy omillar bilan ham bog'liqdir. Frazeologizmlarning paydo bo'lishi va shakllanishi, birinchidan, tarixiy jarayonlar, ijtimoiy muhit, ijtimoiy-siyosiy hayot, siyosiy-ma'naviy qarashlar, ikkinchidan lisoniy, ya'ni tilning grammatik qonun-qoidalari kabi omillar bilan uzviy aloqadordir. Shakllanish davrida frazeologizmlar ham leksika kabi tilning ichki qonuniyatlariga fonetika, leksik-semantik, grammatik talablarga bo'ysundiriladi.

«Frazeologizm til birligi sifatida murakkabligi, uning ma'nan yaxlitligi bilan alohida shakllangan shakli o'rtasidagi ziddiyat, nomoslik, iboradagi dolzarb va etimologik ma'nolar nomuvofiqligi ularni nutq jarayonida qo'llanishini qiyinlashtiradi».<sup>1</sup> Bu fikrni tasdiqlab, yana shuni ta'kidlaymizki, bu nomuvofiqlik frazeologizmlarning etimologik asosini aniqlashni ham mushkullashtiradi.

O'zbek tili frazeologik manbalarini o'rganishda, ularni leksik-semantik guruhlariga ajratish leksikaga nisbatan muammoli o'rinlar, chalkashliklar, hatto hal qilinishi qiyin kechadigan qirralari ko'ndalang bo'ladi. Shulardan biri frazeologizmlarning qatlamlari masalasidir. Qatlamlanuvchi frazeologizmlar genetik jihatdan turli davrlarga mansub bo'ladi. Leksemalar «genetik jihatdan ikki manbaga mansubdir: a) o'sha tilning o'ziniki bo'lgan so'zlar; b) bu tilga boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar»<sup>1</sup> Frazeologizmlarda bunday qatlamlarni aniqlash bir qadar qiyin. Chunki birinchidan, frazeologizmlar tarkibidagi leksemalar genetik jihatdan turli qatlamlarga tegishli bo'lsa, ikkinchidan, shakl va ma'no o'rtasida nomuvofiqlik ham mavjud. Masalan, «alifni kaltak deyolmaslik» frazeologizmi «g'irt savodsiz bo'lmoq», «hech narsa bilmaslik», «ma'lumoti yo'q» kabi ma'noni ifodalaydi.<sup>2</sup>

Frazeologizmlarning shakllanishi turli yo'llar bilan amalga oshadi. Til egalari u yoki bu harakat va holatni ifodalash maqsadida kishilar xarakteriga o'xshash narsalarni ko'chirish asosida obrazli iboralarni shakllantiradilar.

<sup>1</sup> Yo'ldoshev B. Frazeologizmlarning adabiy til normasiga munosabatiga doir// O'zbek tili va adabiyoti. T., 1992, 3-4 sonlar, 39-bet.

<sup>2</sup> Begmatov E.A. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. 48-bet.



Ayrim milliy xarakterdagi frazeologizmlarning ma'nolari birikma ifodalaydigan belgi, harakatdan kelib chiqadi. Masalan, tilimizdagi «Ali desa, Bali demoq» frazeologizmi biron narsa, hodisa yoki tushuncha bilan bog'lanmaydi. Bu frazeologizm tarkibidagi Ali va Bali ma'lum shaxslarning nomi bilan ham bog'liq emas. Bunda ikki kishining o'zaro bahslashishi va ulardan birining o'rinsiz gap qaytaraverishi, o'jarligini ifodalash maqsadida tasodifiy qo'llanilgan komponentlardir. Ikkinchi komponent Bali fikrimizcha Vali bo'lishi kerak. Chunki Bali antroponimi o'zbek tilida uchramaydi. Talaffuzni soddalashtirish maqsadida Vali o'rniga Bali shakli yuzaga kelgan bo'lishi mumkin, deb hisoblaymiz. Bali komponentining Vali ekanligini "Alining kekini Validan olmoq" frazeologizmi ham tasdiqlaydi. Bu frazeologizm tarkibida *Vali* komponenti to'g'ri qo'llanilgan. Biroq bunda ham frazeologizm komponentlari ma'lum shaxslarning nomi bilan bog'lanmaydi. U «alamini aynan zarur bo'lgan kishidan emas, balki bunga aloqasi bo'lmagan kishidan olish» tushunchasi bilan bog'lanadi.

Ayrim frazeologizmlarning ma'nosi biron harakat-hodisaning oqibati, sababi natijasida kelib chiqadigan harakat-hodisaning o'xshashligi bilan aloqador bo'ladi. Bunda frazeologizmning ma'nosi relikat (qoldiq) ma'nodek tuyuladi. *Arava* leksemasi bilan bog'liq "aravani quruq olib qochmoq", "aravani olib qochmoq", "olib qochmoq" frazeologizmlari «balandparvoz gap qilmoq, behad maqtanmoq» ma'nosini ifodalaydi. Bu ibora milliy xarakterga ega bo'lishi bilan birga, ularning etimologik manbasini quyidagicha izohlash mumkin: aravaga yuk ortmasdan, quruqdan-quruq yurgizish eshakka ham, egasiga ham zarur, ikkinchidan, aravaning quruqligi hech narsadan hech narsa yo'q maqtanish bilan teng. Shundan kelib chiqib, quruqdan-quruq yurish maqtanish bilan tenglik, behudalik holatiga o'xshatilgan.

Bulardan tashqari, arava leksemasi ishtirokida «aravangni tort», «o'z aravangni o'zing tort» kabi frazeologizmlar ham shakllangan bo'lib, ular ham aravaning xususiyatlarini o'xshatish asosida yuzaga kelgan.

«Arpasini xom o'rmoq» frazeologizmi «yomonlik qilmoq» ma'nosini ifodalaydi. Bunda frazeologizm ifodalaydigan ma'no so'z birikmasi bildirgan belgi, harakatdan mantiqan kelib chiqadi. Bunda birovning arpasini xom o'rish unga yomonlikni ravo ko'rish bilan tengligi nazarda tutilgan.

«Arra qilmoq» frazeologizmi ham harakat ma'nosidan mantiqan kelib chiqadi. Odatda arra kesadigan boshqa asboblarga nisbatan teng va tekis, bejirim kesishi bilan ajralib turadi. "Teng bo'lib olish" ma'nosi arraga xos bo'lgan belgi-xususiyatdan mantiqan kelib chiqqan. Chunki aynan shu xususiyat teng va bejirim kesish holatiga o'xshatilgan. Shu asosda tilda yangi frazeologizm shakllangan: *Xo'jalik a'zosi*



*bo'lmagan tanish-bilishlariga er ajratib berib, qovun-tarvuz ektirdi-da, hosilni ular bilan arra qildi.* (Mushtum)

«Atlas ko'ylakka bo'z yamoq» frazeologizmi shunday jarayonni amalga oshirish maqsadga muvofiq emasligi tushunchasi bilan bog'lanadi. *Atlas* milliy liboslar ichida eng ohorlisi, bo'z esa uning aksidir. Bu ikki buyum o'rtasidagi nomuvofiqlik, nomoslik ushbu frazeologizmga xos «arzimagan nuqsonning yaxshi narsani buzishi» ma'nosining yuzaga kelishiga asos bo'ladi.

Ayrim milliy xarakterli frazeologizmlar muayyan bir davrning mahsuli bo'lib, ular o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy, tarixiy, jo'g'rofiy hayotini aks ettiradi. Masalan, *aflotun miya* frazeologizmining paydo bo'lishi buyuk yunon faylasufi Platon (sharqda Aflotun nomi bilan mashhur) nomi bilan bog'lanadi. U aqlli, donishmand, bilimdon kishi bo'lgan. Shu xususiyat asosida aqlli, donishmand kishilar *aflotun miya* deb atalgan.

Ayrim frazeologizmlar jo'g'rofiy nomlar bilan aloqadordir. Masalan, "Afrosiyobdan qolgan" frazeologizmi Markaziy Osiyodagi eng qadimgi shahar Afrosiyob toponimi bilan bog'lanadi. Qadimiylik xususiyati «kishilar yoshining ulug'ligi» ma'nosini ifodalash uchun asos qilib olingan.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida ham frazeologizmlarning turli jihatlarini o'rganish bo'yicha jiddiy yutuqlarga erishildi. Frazeologizmlarni ilmiy tadqiq etish bo'yicha qator doktorlik va nomzodlik ishlari himoya qilindi, o'nlab ilmiy maqolalar, o'quv qo'llanmalari, frazeologik lug'atlar yuzaga keldi. O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarni ilmiy tadqiq etishni birinchi bo'lib Sh.Rahmatullayev boshlab berdi. Uning 1966-yilda himoya etilgan doktorlik ishida va «O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari» nomli monografiyasida frazeologizmlarning grammatik tabiati keng ko'lamda yoritilgan. Muhimi, bu asarda frazeologizmlar lug'aviy birlik sifatida o'rganilishi zarur ekanligi asoslab beriladi. Monografiyada o'z ifodasini topgan fikr-mulohazalar, xulosalar frazeologizmlarni semantik, grammatik, stilistik jihatlardan o'rganishga imkoniyat yaratdi. Olimning keyingi yillarda yaratgan qator ilmiy ishlari<sup>3</sup> ham o'zbek frazeologiyasining rivojiga muhim hissa bo'lib qo'shildi. Xullas, tilshunos frazeologizmlarni grammatik va semantik planda o'rganishni boshlab berdi.

Ammo keyingi yillarda frazeologizmlarni grammatik va semantik planda o'rganish bir kadar sustlashib qolganligi ko'zga tashlandi. Bu sohada A.Rafiev, A.Mamatov va Q.Hakimovlarning nomzodlik ishlarini hisobga olmaganda,

<sup>3</sup> Rahmatullayev Sh. Leksikologiya bilan frazeologiya//Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1992, -B.49-186.; O'zbek tilining frazeologik lug'ati; O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog'lashuvi.-T., 1992.



tilshunosligimizda frazeologizmlarning grammatik-semantik tabiatini tadqiq etuvchi ilmiy ishlar deyarli yaratilmadi.

O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarni stilistik planda o'rganish ham yo'lga qo'yildi. O'zbek yozuvchi va shoirlari asarlari frazeologizmlarning uslubiy xususiyatlari ko'pgina nomzodlik ishlari uchun mavzu bo'ldi. Ammo ko'pgina shoir-yozuvchilar asarlari frazeologizmlarni uslubiy jihatdan alohida mavzu sifatida emas, balki yo'l-yo'lakay yoritildi. Bu o'zbek badiiy san'atkorlarining frazeologizmlardan foydalanish mahorati va ularning uslubiy xususiyatlari to'liq ilmiy yoritildi, degan gap emas.

Erishilgan yutuqlarni e'tirof etish bilan birga, hali o'zbek frazeologiyasining ko'pgina jihatlari tilshunoslar e'tiboridan chetda qolayotganligini ham ta'kidlash lozim. Jumladan, frazeologik ob'ektni belgilash, frazeologizmlarning paydo bo'lish va shakllanish tizimi, manbalari, tarixiy taraqqiyoti, frazeologik semantik bog'lashuv, ideografik semalar tahlili, frazeologizmlarni diaxron planda tadqiq qilish, frazeologik etimologiya, frazeologik stilistika, turli tillar frazeologizmlarini qiyosiy o'rganish kabi masalalar xususida chuqur ilmiy monografik ishlar olib borilishi zarur. Shuningdek, o'zbek tilining frazeologik qatlamlarini belgilash, nutq jarayonidagi o'ziga xos qo'llanish xususiyatlari, qo'llanishdagi nuqsonlar, frazeologizmlar o'zlashtirish kabi masalalar ham tilshunoslar e'tiborida bo'lishi kerak. Shuningdek, «xalq tili frazeologiyasi, o'zbek folklori frazeologiyasi, o'zbek dialektal frazeologiyasi materiallari hali tadqiq etilganicha yo'q».

Eng muhimi, o'zbek tili frazeologiyasining asoslarini belgilovchi ilmiy-nazariy qo'llanma ham yaratish zarur. O'zbek tilining barcha frazeologik boyligini jamlovchi ko'p tomli izohli lug'atini tuzishni yo'lga qo'yish lozim. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun iste'molda ko'p qo'llanadigan izohli frazeologik lug'at yaratish ham zarur. Shubhasiz, amalga oshirilajak bu ishlar frazeologizmlarni nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham chuqur o'rganish imkoniyatini yaratadi.

Frazeologiya lisoniy kategoriya sifatida keyingi yillarda keng miqyosda o'rganilmoqda. Bu esa frazeologiyani tilshunoslikning yangi sohasi sifatida shakllantirishga imkon tug'dirdi va uning o'rganish ko'lamini kengaytirdi. Frazeologizmlarning grammatik, sintaktik, stilistik xususiyatlarini har tomonlama chuqur ilmiy tahlil etish uning bir qadar nazariy asosini yaratish mas'uliyatini ham keltirib chiqaradi. Ammo ko'pgina nazariy va amaliy-ilmiy tadqiqotlar yuzaga kelishiga qaramay, frazeologiya hozirgacha tilshunoslikning kam o'rganilgan sohasiligicha qolmoqda.



Frazeologizmlar struktural, semantik, funksional-uslubiy jihatlardan murakkab hodisa bo'lganligi uchun u o'ziga xos shakllanish qonuniyatlariga ega. Frazeologik shakllanish til elementlarining, xususan, ikki yoki undan ortiq so'zlarining o'zaro uyushib, yangi til birligini yuzaga keltirishgacha bo'lgan jarayondir.

Frazeologizmlarning tarkibiy va ma'naviy shakllanishi leksikaga nisbatan juda murakkab bo'lib, bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshadi. Ta'kidlash joizki, hozirgi qadar frazeologizmlar sinxron nuqtai nazardan o'rganildi va bu intilish hozirgacha davom etmoqda. Bu esa frazeologizmlarning manbalari, tarixiy-etimologik asoslarini o'rganish imkoniyatini bermayotir.<sup>4</sup>

Bu ayniqsa, frazeologizmlarning shakllanish jihatlari ochiqdan-oydin namoyon bo'ladi. Aslida leksemalarning genetik asosi frazeologizmlarning yuzaga kelishi uchun asosiy manba hisoblanadi. Chunki aynan leksemalar frazeologizmlar uchun «qurilish ashyosi»dir. Ammo «frazeologik birlik ifoda plani bilan mazmun planining o'ziga xos qarama-qarshiligi va birligi asosida yuzaga keladi, shunga ko'ra, frazeologik birliklar alohida yondashishni, o'rganishni talab qiladi».<sup>5</sup>

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yo'ldoshev B. Frazeologizmlarning adabiy til normasiga munosabatiga doir// O'zbek tili va adabiyoti. T., 1992, 3-4 sonlar, 39-bet.
2. Begmatov E.A. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. 48-bet.
3. Rahmatullayev Sh. Leksikologiya bilan frazeologiya//Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1992, -B.49-186.; O'zbek tilining frazeologik lug'ati; O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog'lashuvi.-T., 1992
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. –Toshkent, 1992. –B.4.
5. Tursunov U va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent, 1992. –B.149.

<sup>4</sup> Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. –Toshkent, 1992. –B.4.

<sup>5</sup> Tursunov U va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent, 1992. –B.149.